

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'RIFIY GAZETASI

№ 2 (49) 24-fevral, 2023-yil, juma

Ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy gazeta

Bahosi erkin narxda


Gazeta 2019 yil yanvardan chiga boshladi



ZAKOVAT INTELLEKTUAL O'YINI

Jizzax viloyati Yangiobod tuman Axborot-kutubxona markazida Yangiobod tuman Ichki ishlar bo'limi xodimlari ishtirokida buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi munosabati bilan "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi. Buyuk shoir Mir Alisher Navoiy bebafo ijodiy-ilmiy merozi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rinn tutganligi haqida batasfil ma'lumot berib o'tildi. "Zakovat" intellektual o'yinida 3 ta jamoalar o'zaro bellashdilar. Jamoalar berilgan savollarni qiziqarli bahs-munozaralar bilan muhokama qilib, tezkorlik va aniqlik bilan javob berishdi hamda o'z bilim salohiyatlarini yana bir bor namoyish etishdi. "Zakovat" intellektual o'yini qiziqarli bahs-munozaralarga boy tarzda bo'lib o'tdi. G'oliblikni qolga kiritgan jamoalar Axborot-kutubxona markazining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Tadbirda 20 nafar Ichki ishlar bo'limi xodimlari va kitobxonlar ishtirok etdilar.

Axborot-kutubxona markazi



Yangiobod tuman Axborot-kutubxona markazi tomonidan shu yilning yanvar oyi davomida kitobxonlarni qishki ta'til vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Kitobxonlar klubi" telegram guruhida respublika miqyosida onlayn savol-javoblar viktorinasida tashkil etilgan edi.

Ushbu onlayn savol-javoblar viktorinasida faol ishtirok etib, eng yuqori natijalarni qo'llgan kiritgan zukko kitobxon ishtirokchilar Axborot-kutubxona markazi tomonidan munosib rag'batlantiri ldi.

Axborot-kutubxona markazi direktori F.Rahimov g'olib ishtirokchilarga faoliyk uchun minnatdorchilik bildirgan holda samimiyl tabriklab, ularga "Diplom" va "Kitoblar jamlanmasi" topshirdi.

F.RAHIMOV, Axborot-kutubxona markazi direktori